

OB'YEKTNING JORIY NARXDAGI SMETASI TARKIBIDAGI TO'G'RI HARAJATLARNI HISOBLASH YO'LLARI

Abdullayev Axror Jaxbarovich

Toshkent davlat transport universiteti. Dotsent

Raimova Durdona Durdibay qizi

Toshkent davlat transport universiteti. Assistent

Shanazarova Nilufar Baratovna

Toshkent davlat transport katta o'situvchi Assistent

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda qurilish sohasida olib borilayotgan islohotlar shuni ko'rsatadiki, yurtimizda arzonlashtirilgan, zamon talabiga javob bera oladigan turar-joy binolariga ehtiyoj juda yuqori. Shu maqsaddan kelib chiqib yurtimizda qurilayotgan turar-joy ob'yektlarini arzonlashtirish yani ob'jektning qiymatini oshib ketishiga olib keluvchi omillar o'rganib chiqilmoqda.

Kalit so'zlar: harajat, tahlil, resurs

Ob'jektning qurilishida yeng katta ta'sir etuvchi asosiy resurslar to'g'ri harajatlardan iborat.

Ushbu to'g'ri harajatlar xam o'z navbatida bir necha harajatlarga bo'linadi.

Bular:

- uskunalar, mebellar va inventarlar harajatlari;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari harajatlari;
- yagona ijtimoiy sug'urta bilan hisoblangan asosiy ish haqi harajatlari;
- qurilish mashina va mexanizmlaridan foydalanish harajatlari

Tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu komponentlardan ob'jekt qiymatining 64 % ni to'g'ri harajatlar tashkil etadi. Ushbu to'g'ri harajatlarni 100% deb oladigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi harajatlarni xam o'rganib chiqamiz.

Quyidagi jadvalda qurilish ob'jektining to'g'ri harajatlari tarkibining tahlili keltirilgan bo'lib, undagi eng katta ta'sir etuvchi harajatlardan biri qurilish materiallari o'rtasidagi tafovut keltirilgan.

1-jadval

№	Harajatlar nomi	Yog'och karkas	Ob'jektning umumiy qiymatiga nisbatan ulushi (%da)
1	Uskunalar, mebel va inventarlarga harajatlar	1 921 213,9	12,11
2	Yagona ijtimoiy sug'urta bilan hisoblangan asosiy ish haqiga harajatlar	3 062 711,7	19,31

3	Mashina va mexanizmlardan foydalanish harajatlari	1 561 562,4	9,84
4	Qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarga harajatlar	9 161 217,25	57,75
5	Ishlab chiqarishga oid boshqa harajatlar	156 700,6	3,28
6	Jami to'g'ri harajatlar	15 863 405,85	100
7	Pudrat tashkilotining boshqa harajatlari 18.86%	2 922 039,36	60,60
8	Buyurtmachining boshqa harajatlari	654 200,00	38,12
9	Qurilish ob'yektining sug'urtalash harajatlari	50 762,90	1,28
10	Jami qurilish ishlari egri harajatlari	3 627 002,26	100

Undan tashqari qurilish ob'yektining to'g'ri harajatlar tarkibining ulushi ham tahlil qilingan. Jumladan, ukskuna, mebel inventar harajatlar 12,11%, ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan ish haqi 19,31% ni va Mashina mexanizmlar ekpluatatsiyasi harajatlari esa 9.84% ni tashkil etgan. Boshqa harajatlar tarkibida pudratchining harajatlari 60 % ni, buyurtmachining boshqa harajatlari 38.12% ni sug'urta harajatlari esa 1.28 % ni tashkil etgan. Olib borilgan tadqiqot ishida qurilish ob'yektining turli qurilish ishlarida zamoanaviy texnologiyalarni va kurilish materiallarini ko'llash har doim yuqori iqtisodiy samara berishi o'rganildi. Jumladan mazkur ishda ikki yo'nalishda, ya'ni bino qurilishining bezak ishlarida va tashqi pardozdash ishlarida loyihada berilgan ananaviy qurilish materiallari o'rniga zamonaviy energiya tejamkor qurilish materiallari qo'llanilish o'rganib chiqildi va erishilgan iqtisodiy samaradorlik asoslandi.

1. Binoning ichki pardozlash ishlarida suvoq ishlari, devorlarni tekshlash ishlari, burchaklarni otkos olish ishlari, bo'yoqqa tayyorlash ishlari jami 12 turdagi ishlar o'rniga asosli gipsokarton bilan qoplash ishlari bajarildi. Natijada binoning 100 m2 bezak ishlariga sarflanadigan harajatlar qiymati 1,8 martaga kamayishi isbotlandi. Bunda oddiy ichki bezak ishlarida 100 m2 yuzaga 13416,840 ming so'mlik material sarflansa gipsokartonli qoplamada esa 7432,390 ming so'mlik material talab etiladi.

2. Bino devorlarining tashqi pradozlash ishlarida ananaviy suvoq ishlarini o'rniga g'isht devor yuzasiga penapolestrolli teplozaliatsion qoplama, armozetka va dag'al shpaklevkali tekshlash ishlarini bajarish hisobidan 100 m2 ga sarflanadigan harjat 1,4 martaga kamaytirilib binoning energiyatejamkorligi 2 martaga oshirilishi isbotlandi. Bunda oddiy tashqi suvok ishlariga 100 m2 yuzaga 24718,715 ming so'mlik material sarflansa penapolestrolli teplozaliatsion qoplamada esa 13811,225 ming so'mlik material sarflanadi.

Ob'yektning tashki va ichki pardozlash ishlari smetasida ananaviy materiallar o'rniga zamonaviy energiyatejamkor materiallardan foydalanilganligi sababli jami to'g'ri harajatlar tarkibidagi qurilish materiallariga sarflanadigan harajatlarni 4-6% ga kamaytirishga erishildi.

Keltirilgan tahlillar natijasiga asoslanib qurilish ob'yekti to'g'ri harajatlarini takomillashtirish bo'yicha olinadigan amliy takliflar quyidagilardan iborat:

1. qurilish ob'yekti loyihasining kapitallik darajasidan kelib chiqib binoning qurilishi rejalashtirilayotgan hudud xususiyatlarini inobatga olgan holda resurs smetasi tarkibidagi to'g'ri harajatlarni tahlil qilish lozim;

2. qurilish ob'ketining smeta qiymatini kamaytirish maqsadida to'g'ri harajatlarni harajatlar guruhlariga bo'lgan holda ular tarkibidagi har bir resurga qo'llaniladigan narxlarni, transport va omborxonada saqlash harajatlarini inobatga olgan holda kamaytirish variantlarini tanlash;

3. ob'ekning resurslar vedomostida sarflangan qurilish materiallari tarkibidan eng kup hajmga va qiymatga ega bo'lgan asosiy to'ldiruvchi qurilish materiallarini (kamida 85%ni) qiyosiy tahlil qilish orqali optimalini tanlash yo'li bilan to'g'ri harajatlar qiymatini kamaytirish;

4. lokal smeta tarkibidagi alohida bo'lgan qurilish ishlariga olingan rassenska tarkibidagi amalda qo'llanilgan (ma'naviy eskirgan) materiallar o'rniga zamoanviy yangi texnologiyalarga asoslangan, yuqori samarali materiallarni qo'llash orqali harajatlar miqdorini qisqartirish xisobiga ob'yektning to'g'ri harajatlarini kamaytirishga erishiladi.

Yuqorida keltirilgan takliflar asosida qurilish ob'yektlari tannarxining asosini tashkil etuvchi to'g'ri harajatlarni 5-6 %ga kamaytirishga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stepanov P. S. "Ekonomika stroitelstva" M., "Yurayt", 2005.
2. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Xaitov E.B. senoobrazovanie v striotelstve. Uchebnoe posobie. T.: TASI, 2012g.
3. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Xaitov E.B. Qurilishda tanlov savdolari va ularni tashkil etish T.: TAQI, 2012y.
4. Maxmudov E.X. Kapital qurilish iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2009.